XALQ DEPUTATLARI SERGELI TUMANI KENGASHI
QARORI

2023 - yil 29 - dekabr VI-93-157-14-201-K/23 Sergeli tuman hokimligi

2024-yil uchun Sergeli tuman mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari va Budjet kodeksining 99-moddasi hamda 2023-yil 25 -dekabrdagi “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-son Qonuniga hamda xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining 2023-yil 28-dekabrdagi “2024-yil uchun Toshkent shahar mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-95-278-14-0-K/23-sonli qaroriga muvofiq hamda Toshkent shahar Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 26 -dekabrdagi 01-3/2692-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Sergeli tuman Kengashi

QA R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrdagi “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga (keyingi o‘rinlarda Qonun deb ataladi) va xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining 2023-yil 28-dekabrdagi “2024-yil uchun Toshkent shahar mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-95-278-14-0-K/23-sonli qaroriga muvofiq 2024-yil uchun Sergeli tuman mahalliy budjeti parametrlari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining 2023-yil 28-dekabrdagi “2024-yil uchun Toshkent shahar mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-95-278-14-0-K/23-sonli qarorining 5-ilovasiga muvofiq, Sergeli tuman mahalliy budjetining 2024-yil uchun daromadlari 125 483 000,0 ming so‘m

va xarajatlari 125 483 000,0 ming so‘mga balanslashgan holda prognoz qilinganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2024-yil uchun Sergeli tuman mahalliy budjetining daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2024-yil uchun Sergeli tumanining tuman mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2024-yil uchun Sergeli tuman budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratmalar normativlari bo‘yicha Toshkent shahar mahalliy budjeti bilan tumanlar mahalliy budjetining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda Toshkent shahar bo‘yicha g‘aznachilik boshqarmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

6. 2024-yil uchun Sergeli tuman mahalliy budjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 493 000,0 ming so‘m miqdorida belgilansin.

7. 2024-yil uchun Sergeli tumanining tuman mahalliy budjetining zaxira jamg‘armasi hajmi 1 062 170,0 ming so‘m miqdorida belgilansin.

8. O‘zbekiston Respublikasining mazkur qonuni bilan 2024-yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan, mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2024-yilda quyidagi soliq turlari:

a) tumanlar budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

davlat aktivlarini joylashtirishdan, foydalanishga (ijaraga) berishdan va sotishdan tushadigan tushumlar;

yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno.

b) Quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to‘lovlar Toshkent shahar mahalliy budjeti hamda tumanlar mahalliy budjetlari o‘rtasida taqsimlanadi:

aylanmadan olinadigan soliq;

benzinni, dizel yoqilg‘isi va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i.

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan daromad solig‘i teng ulushlarda taqsimlash;

davlat mulkini ijaraga berishdan tushadigan tushumlar.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish ko‘lamini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2022-yil 25-oktabrdagi PQ-409-son qaroriga asosan 2023-moliya yilidan boshlab:

a) Toshkent shahrining shahar budjetida shakllangan qo‘shimcha mablag‘larning 30 foizi tumanlarda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun tumanlar Fuqarolar tashabbusi jamg‘armalariga mavjud aholi soni va mahallalar sonidan kelib chiqib, teng ulushlarda yo‘naltirilishi;

b) tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari uchun tuman (shahar) budjetlarining 5 foizi miqdorida, biroq kamida 6 milliard so‘m kam bo‘lmagan miqdorda mablag‘ rejalashtirilishi belgilanganligi;

v) “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini jamoatchilik fikri asosida tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari orqali amalga oshirilishining yangi tartibi ishlab chiqilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

10. Quyidagilar tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika budjetidan, viloyatlarning viloyat budjetlaridan, Toshkent shahrining shahar budjetidan hamda tumanlar va shaharlar budjetlaridan moliyalashtiriladi:

Soliq qo‘mitasining hududiy organlarini saqlash xarajatlari;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri, tumanlar va shaharlardagi Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari.

11. Sergeli tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Jumaboyev), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (E.Mardiyev), tuman davlat soliq inspeksiyasi (X.Qosimov) hamda mas’ul bo‘limi va tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon hamda kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjet prognoz ko‘rsatkichlarini o‘z vaqtida va samarali bajarish;

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

12. Sergeli tuman davlat soliq inspeksiyasi (X.Qosimov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan olinadigan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida

fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratish;

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish;

Kadastr agentligi Sergeli tuman bo‘limi bilan birgalikda tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasin.

13. Majburiy ijro byurosi Sergeli tuman bo‘limi, Sergeli tuman davlat soliq inspeksiyasi bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rib borishni ta’minlasin.

14. Xalq deputatlari Sergeli tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasiga:

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etiladigan takliflarini belgilangan muddatlarda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazish;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatish, tavsiyalar berish va monitoring qilish;

mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etish va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirish vazifasi topshirilsin.

15. Quyidagilar:

tuman budjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirishni;

bunda, xalq deputatlari tuman Kengashi, yoshlar ishlar agentligi, tumanlar hokimliklari huzuridagi jamoatchilik Kengashlari hamda yangi joriy etiladigan hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishni tavsiya etish;

mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek, qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10-sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borish topshirilsin.

16. Sergeli tuman hokimining birinchi o‘rinbosari, tuman davlat soliq inspeksiyasi, tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi hamda tegishli bo‘limlar bilan birgalikda:

mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha xalq deputatlari Sergeli tuman Kengashiga chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

17. Sergeli tuman hokimligi matbuot xizmati:

mazkur qaror rasmiy e’lon qilinishini va www.sergelihokimiyati.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlash tavsiya etilsin.

18. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

19. Xalq deputatlari Sergeli tumani Kengashining 2023-yil 5 yanvardagi “2023-yil uchun Sergeli tumani mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi II-76-1-14-201-K/23-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

20. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Sergeli tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi va Sergeli tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Jumaboyev zimmasiga yuklansin.

Xalq deputatlari Sergeli tuman Kengashi raisi

E.Shukurov

Xalq deputatlari Sergeli tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-93-157-14-201-K/23-son qaroriga
1-ilova

2024-yil uchun Sergeli tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Mablag‘ miqdori
JAMI		**125 483 000,0**
1	Yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	10 025 000,0
2	Aksiz	7 173 000,0
-	benzinni, dizel yoqilg‘isi va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	7 173 000,0
-	alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun	0,0
-	mobil aloqa	0,0
-	tamaki mahsulotlari	0,0
3	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	9 768 000,0
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	32 637 000,0
5	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	9 021 000,0
6	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	13 786 000,0
7	Aylanmadan olinadigan soliq	9 551 000,0
8	Davlat mulkini ijaraga berishdan tushadigan tushumlar	1 080 000,0
9	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno	32 442 000,0

Xalq deputatlari Sergeli tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-93-157-14-201-K/23-son qaroriga
2-ilova

2024-yil uchun Sergeli tumanining tuman mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	Mablag‘ miqdori
Xarajatlar miqdori, Jami		**125 483 000,0**
1.	Maorif	47 083 466,0
-	Maktabgacha ta’lim sohasi	23 908 571,0
-	Xalq ta’limi sohasi	23 174 895,0
2.	Sog‘liqni saqlash sohasi	3 913 756,0
3.	Madaniyat va sport, ommaviy axborot vositalari	7 241 127,0
-	Madaniyat sohasi	1 290 841,0
-	Jismoniy tarbiya va sport sohasi	5 950 286,0
4.	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	112 235,0
5.	Chernobil falokatini bartaraf etishda qatnashganlarni ijtimoiy himoyalash	3 709,0
6.	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	312 123,0
7.	Iqtisodiyotga xarajatlar	21 404 988,0
-	Ichki xo‘jalik avtomobil yo‘llarni ta’mirlash xarajatlari	1 335 000,0
-	Obodonlashtirish sohasi	15 868 146,0
-	"Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	4 201 842,0
8.	Davlat boshqaruv organlarini saqlash	27 359 426,0
9.	Zaxira jamg‘armasi	1 062 170,0
10.	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	16 990 000,0

Xalq deputatlari Sergeli tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-93-157-14-201-K/23-son qaroriga
3-ilova

2024-yil uchun umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yorlari

T/R	Tuman nomi	Aylanmadan olinadigan soliq	Benzinni, dizel yoqilg‘isi va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, *bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno*
1	Sergeli tumani	18%	9%	8%	9%	100%